

ABDULLA SHERNING BA'ZI SHE'RLARIDA OBRAZLAR MASALASI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna

BuxDU Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti II bosqich magistranti
d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada serqirra ijodkor Abdulla Sherning bir nechta she’rlari tahlilga tortilgan. She’rlardagi obrazlar, shoirning so‘z qo‘llash mahorati hamda badiiy salohiyati talqin qilingan. Tabiat mavzusidagi aksar she’rlarida qollangan obrazlar qamrovi yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, badiiylik, mahorat, tabiat, so‘z qo‘llashdagi uslub.

Adabiyot va san’at jamiyatni yuksaltiruvchi birlamchi kuch hisoblanadi. Inson dunyoni anglash davomida tabiat hodisalari, turli voqealarga mos hikoyalar yaratgan. Shu tariqa asta-sekin adabiyot inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, tabiat, undagi turli hodisalar asarlar tarkibiga kira boshladi.

Abdulla Sher lirikasi juda keng obrazlar olamiga ega. Bir she’rda uchragan obraz va ramzlar boshqa she’rlarida o‘zgacha ohang kasb etadi. Insonni tafakkur qilishga, she’rdan estetik zavq olishga undaydi. Shoir avgust tabiatini tasvirlaydi:

Xo‘p yetilib ayni dum bergen
Handalakday yumalar quyosh
Hilol-somon yo‘lin supurgan
Qaddi bukik keksa bir farrosh¹.

Oy va quyosh haqida adabiyot paydo bo‘lganidan to bugunga qadar minglab o‘xshatishlar uchraydi. Ammo quyoshning pishgan handalakdek dumalashi-yu hilolning farroshga qiyoislanishi yangicha hodisadir. E’tiborlisi, shoir aynan oy emas, balki hilol so‘zini qo‘llaydi. Boisi, yangi chiqqan oy-hilol qaddi bukilgan farroshga o‘xshaydi. Biroq shu yerda bir ziddiyat kelib chiqadi. Aslida yangi endi ko‘ringan ingichka oyga nisbatan hilol leksemasi qo‘llaniladi. Biroq shoir hilolga “keksa” o‘xshatishini beradi.

Bir lahzada dumalagan quyosh va handalak, bukik hilol va somon yo‘li ko‘z o‘ngimizda gavdalaniб kishiga zavq bag‘ishlaydi. Shoirning so‘z qo‘llash mahoratini quyidagi she’r orqali yanada aniqroq anglaymiz:

“Quyosh surati” she’rida quyosh umuman boshqacha namoyon bo‘ladi:

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-17.

Tuproqqa engashgan qurumli osmon,
 Yaxlagan zoldirdek quyosh g‘ildirak.
 Ko‘zyoshdan namiqqan tunda bedarmon
 Zanglagan yulduzlar karaxt dildirar.¹

Yuqoridagi she’rda handalakka qiyoslangan quyosh ushbu she’rda yaxlagan zoldir (shar, soqqa) ga o‘xshatiladi. “Qurumli osmon” , “yaxlagan zoldirdek quyosh” , “zanglagan yulduz” birikmalari sovuq urush manzarasini namoyon qiladi.

Tabiat mavzusidagi she’rlarni ko‘rishda davom etamiz:

Barglar bir – birin tutar
 Yengamiz deb sho‘x soyni.
 Eng adl terak chertar
 Chirmanda qilib oyni.²

Ushbu she’r quvnoq va o‘ynoqi yetti bo‘g‘inli vaznda bitilgani bilan xalq og‘zaki ijodiga o‘xshab ketadi. Shoir shabada esib turgan tunni tasvirlaydi. Soyning shovqini barglarning shitir – shitir ohangiga qo‘shilib ketgan, teraklar bo‘y cho‘zgan, to‘lin oy yorishib turgan go‘zal tun manzarasi xayolda gavdalanadi.

Shoir quyidagi oq she’rida qishda deraza oynalarida paydo bo‘ladigan naqshlarni qalamga oladi. Xalq tilida Qorbobo chizgan naqshlar deb yuritiladigan chizgilar aslida kondensatsiyalanish hodisasi natijasidir. Bu fizik xossasi shoir mahorat bilan satrlarga joylaydi.

Hatto qahratonda, qor- qirovda ham,
 Boqsin deya insonlar
 Gullar orqali faqat
 Tong yuziga,
 Borliq yuziga
 Gul suratin solar tabiat –
 Derazalar ko‘ziga.³

She’rning yozilish uslubi ham chiroyli. Uni o‘qish davomida biror noqislik sezilmaydi. Bu kabi tasvirlangan she’rlar shoir ijodida talaygina. Uning har bir satrida obrazlar yangicha olam kasb etadi.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-99

2. Yuqoridagi manba. B-11.

3. Abdulla Sher. Sarbast qo‘shiqlar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2010. B-16

Ufqdin za'faron qatra misoli kun to‘kilmishdir,
Shamol shol aylagan shoxlar xazonlarga bukilmishdir.

Shivir etgay na bir yaproq, ne hojat ham shivirlashdir
Uzib o‘z umridin umid, zimistonga tikilmishdir.¹

Yoki:

Ruhni ezar qo‘rg‘oshin osmon,
Pitra bo‘lib shatirlar yomg‘ir.
Naq chakkadan qisar beomon
Kuz kuni deb atalgan ombir.²

Ko‘rilgan ikki namunada ham kuz fasli qalamga olingan. Kuz faslida sodir bo‘ladigan tabiat hodisalarini shoir mahorat bilan aks ettiradi. Kuzdag'i tabiat injiliklari, sovuq tushishi insonga biroz noqulaylik tug‘dirishi tabiiy. Shoir shu ruhiy holatni ifodalashga urinadi. Oddiygina yaproqlar xazonga aylanib to‘kilishi va qishga tayyorlanishi , qora bulut osmonni qoplab yomg‘ir yog‘ishini “uzib o‘z umridin umid” , “zimistonga tikilmishdir” , “qo‘rg‘oshin osmon” , “shatirlar yomg‘ir” , “ombir” kabi so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalaydi. Uning she’rlarini o‘qish davomida tabiatda uchraydigan har bir narsani sinchiklab kuzatib keyin qalamga olganiga guvoh bo‘lamiz;

Bahor keldi. Ariqchalar jildirab oqdi,
Bulutlarga ko‘chib o‘tdi tog‘lar haybati.
Jala quydi. Tindi. Quyosh jilmayib boqdi.
Yel yugurdi. Gullar kului. Qushlar sayradi.³

Shoirning ushbu she’rida bahor kelib tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlar juda ixcham va o‘ynoqi tarzda tasvirlanadi. Ushbu to‘rt misra inson xayolida bahorning betakror nafosatini chizibgina qolmay, insonga ajib quvonchni taqdim etadi.

Umuman olganda, Abdulla Sher ijodini kuzatish jarayonida uning she’rlarida tabiat hodisalari, jismlari bilan bog‘liq talaygina she’rlari borligiga guvoh bo‘ldik. U she’rlarning ba’zilari aynan tabiat haqida emas, balki inson ruhiyatini ko‘rsatish uchun vosita vazifasini bajargan. Masalan yulduz bilan bog‘liq she’rlarini kuzatamiz:

Yulduzlarni to‘zg‘itib oydek,
Osmonlarni ko‘mmadim nurga.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-99

2. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-117.

3. Yuqoridagi manba. B-52.

O‘z o‘rnini berguvchi soydekk
Bosh jurmadim ayqirgan Sirga.¹

Yoki:

Yulduzlar yashaydi
G‘uj bo‘lib, g‘ujg‘on bo‘lib.
Yulduzlar ashaydi bir osmon bo‘lib.
Bir-birini suyab,
Bir-birini suyub,
Baravar qiqirlab kularlar –
Har kuni.
Lekin
Yakka-yakka kularlar –
Bir kuni odamlar kabi.
O‘shanda bilinadi yorug‘ligi ularning,
O‘shanda bilinadi qoraligi tunlarning...
Yulduzlar yashaydi odamlar kabi.²

Haqparvar shoirning ko‘rib o‘tilgan barcha she’rlaridaadolat, haqiqat, odamiylik, halollik, yurtparvarlik xislatlari kuyga solinadi, tabiat bilan bog‘liq holda aks ettiriladi.

Nogoh yulduz qo‘ndi ko‘zimga bir kun,
So‘ng bir kun yulduzdek yarq etdi so‘zim.
Shu-shu men kimgadir nur sochmoq uchun
Bir umr unutdim o‘zimni-o‘zim.³

Shoir yashnagan, hayotga umid, maqsadga ishonch nigohi ila tikilganini “ko‘ziga yulduz qo‘nishi” jumlesi orqali ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotda yulduz obrazi aksar hollarda ijobjiy obraz sifatida talqin etiladi. “Hali ham izlayman.Bilaman Yerda, Shu cho‘llarda mening yulduzim!” (Asqad Muxtor “Yulduzim”), “Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon, Xuddi senday uzoq va senday yorqin” (Zulfiya “ Yulduz”), “Gar tug‘ilsa biror go‘dak, derlar: “Ortdi yulduz soni,Yana bitta mayoq bilan boyib qoldi yurt osmoni” (Xayriddin Saloh “Yulduzlar afsonasi”), “Ko‘kka otding-yo‘q bo‘l deding-Yulduz bo‘ldim” (Usmon Azim “O‘lgin deding...”) kabi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoir avvlo har bir she’rini yaratishdan oldin uni mushohada etadi, aql tarozisida o‘lchaydi va haqiqatdan uzilmagan holda akslantiradi. Ko‘rib o‘tgan she’rlarimizning aksari tabiat mavzusida edi. Shoir tabiatni go‘yo ona anglaydi, o‘zini shu ona bag‘riga talpinayotgan go‘dak siyosida ko‘radi.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-92.

2. Yuqoridagi manba. B-60.

3. Yuqoridagi manba. B-31.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.
2. Abdulla Sher. Sarbast qo'shiqlar. - T.: G'afur G'ulom, 2010.